

ANDIJON VILOYATIDA MAVJUD AGROTURISTIK MAYDONLARNI HUDUDIY TAHLIL QILISH VA MARSHRUTLARNI YARATISH

Nurmatova InobatxonAvazbekqizi
Andijon Davlat Universiteti magistranti

ANNOTATSIYA

Andijon viloyatida agroturizm rivojlanishi hamda turistlarning tashrif buyurishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish yo'llari. Rivojlangan mamlakatlarda agroturizm salohiyatini o'rganish. Yurtimizga agroturlarni tashkil etish yo'llari va turistik marshrut yaratish.

Kalitso'zlar: Turizm, tursanoat, sayyoh marshrut, agroturistik maydon.

АННОТАЦИЯ

Пути развития агротуризма в Андиканской области и создания благоприятных условий для посещения туристов. Изучение потенциала агротуризма в развитых странах. Создание способов организации агротуров и туристических маршрутов по нашей стране.

Ключевые слова: Туризм, туринаустрия, туристический маршрут, агротуризм.

ABSTRACT

Ways to develop agrotourism in Andijan region and create favorable conditions for tourists to visit. Studying the potential of agrotourism in developed countries. Creation of ways to organize agro-tours and tourist routes in our country.

Key words: Tourism, travel industry, tourist route, agrotourism area.

KIRISH

Avvalo har bir viloyatda turistlarni o'ziga ohangraboday jalg qiladigan yirik loyihalarni amalga oshirishga imkon bor. Masalan, Namangandadagi "Afsonalar bog'i", Bo'stonliqdagi "Amirsoy" majmualariga kuniga minglab xorijiy hamda mahalliy turistlar boradi. Xorijiy investorlar ishtirokida Xonobodda ham yana bir shunday loyiha boshlangan. Agroturizmni ko'p hollarda fermerlik bilan uzviy bog'liqligi bo'lganligi sababli ba'zi davlatlarda fermer turizmi deb ham atashadi.

Agroturizm biznesida birinchi navbatda asosiy masala, qishloq joylarda kishilarni to'g'ri joylashtirish hisoblanadi. Bu yerda birinchi yo'nalish, ya'ni

mehmonxona sifatida dastlabdan qurilmagan qishloq hududida mavjud yerkirada palatkalar joylashtiriladi, mavjud kottejlardan foydalaniladi, ba'zi davlatlar, shuningdek tarixiy inshootlardan ham foydalanadilar. Ikkinci yo'naliish esa maxsus agroturistik obyektlarni qurishdir. Bu ikki sharoitda xususiy fermer xo'jaliklari yoki birlashgan fermerlar guruhi o'z bisnesini rivojlantirish uchun qiziqadilar.

Demak, zamonaviy agroturizm tabiiy-madaniy va qishloq mahalliy resurslaridan foydalanilgan holda kompleks zamonaviy tur mahsulotni yaratishdir. Agroturizmning majburiy tomoni shunda namoyon bo'ladiki, u faqat qishloq joylarda yoki kichik shaharchalarda, shuningdek sanoat va ko'p qavatlari binolar mavjud bo'limgan joylarda bo'lishi lozim. Agroturizmning yana bir o'ziga xos tomoni shundaki, U yagona konsepsiya ega emas, uni barcha davlatlar uchun yagona bir shaklda qo'llash mumkin emas. Lekin shunga qaramay agroturizm tursanoatning samarali tarmog'i sifatida o'zini namoyon etmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

G'arbiy Yevropada agroturizm iqtisodiyotning agrar sektorini restrukturizatsiya qilishda ijtimoiy amortoizatsiya sifatida qo'llanilgan. Bu yerda qishloq aholisining tarkibi buzilishiga olib keluvchi salbiy omillar, ya'ni ishsizlikning, migratsiya, aholi turmush darajasining pasayishini oldini olishni maqsad qilib qo'ygan. "Agroturizmni muvofiqlashtirish esa avvalo, agrar hududlarda ortiqcha mehnat resurslarini muqobil xizmat ko'rsatish sohalariga, o'tkazish, qishloq joylarda yangi kichik korxonalarini ochilishiga olib keladi. G'arbiy Yevropada agroturizmning tursanoatning samarali va daromad keltiruvchi sektori sifatida shakllanishiga davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi sabab bo'lgan.

AQSh da ham turizm keng qo'llaniladi. Bu yerdalarda kichik shaharlarda yashovchiaholi hafta oxirida, ya'ni, shanba va yakshanba kunlarida qishloq joylarga boradi. Agroturizm xizmatidan foydalanuvchilar asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlari yig'imi davrida qishloq joylariga boradi. U yerda sayyoohlarni o'z xo'jaliklariga taklif etib, meva va poliz mahsulotlarini terishga ruxsat beradi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat tomonidan agroturist obyektlarini ko'rish uchun imtiyozlar agroturizmni muvaffaqiyatli rivojlanishi garovidir. Agroturizm sayyoohlarni joylashtirish va arzon ovqatlanish jihatlari bilan boshqa tur yo'llanmalarga nisbatan 2-2.5 barobar arzon hisoblanadi.

TADQIQOT NATIJALARI


Bugungi kunda turizmning juda ko'p turlari mavjud. Har bir tashkil etilayotgan turizm sohasi turistning qiziqishlaridan, ko'zlagan maqsadlaridan kelib chiqib, tashkil etiladi. Demak turistlarning qiziqish va talablari asosida yangi-yangi turistik yo'nalishlar yaratilmoqda. Keying yillarda ishlab chiqarish jarayoni biolan tanishish, mahsulot paydo bo'lishidan to egasiga yetib borguncha bo'lgan davrdagi holatda qiziqish, shuningdek, mahalliy aholining qishloq xo'jaligi mahsulotlari asosida tashkil qilingan an'ana va bayramlarini o'rganishga qiziqishini ortib borishi yangi ko'rinishdagi qishloq xo'jaligini turizmi yoki agroturizm sohasining rivojlanishiga asos bo'ldi.

Bugungi kunda agroturizm rivojlangan mintaqalar sifatida ayrim yevropa mamlakatlari, janubiy va janubiy sharqiy osiyo mamlakatlarini e'tirof etsa bo'ladi.

O'zbekiston respublikasi prezidentining Oliy Majlis Murojaatnomasida "Turizmni rivojlantirish bo'yicha 2021-yilda ham izchil izlohotlarni davom ettiramiz. Ayniqsa ziyyorat turizmi va ichki turizmni rivojlantirishga alohida e'tibor beriladi. Shuningdek, turizm atrofidagi yer maydonlari, suv va yo'l infratuzilmalarini yaxshilash uchun budjetdan bir trillion so'm mablag' ajratiladi" deb ta'kidlaganlar. Bu esa respublikamiz turizm sohasida davlat siyosatini amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari, vositalari va usullarini tadqiq etish orqali barqaror rivojlanishning strategik yo'nalishlarini aniqlash va turistik mahsulotlar raqobatdoshligini oshirishning ilmiy-uslubiy va amaliy jihatlarini tadqiq etish dolzarb hisoblanadi.

MUHOKAMA

Andijon viloyatida turizmni rivojlantirish maqsadida turistik obyektlarni zamonaviy, qulay qilib yaratish lozim. Bundan tashqari Agroturizm marshrutlarni ham yaratish mumkin.



Andijon viloyati Agroturizm marshruti.

Yurtimizning har bir hududida turizmning yosh tarmogí hisoblangan agroturizmni rivojlantirishda boy imkoniyatlardan foydalanib, turistik hududlar bilan birgalikda bir biriga yondosh manzillarni tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Bizning mamlakatimizda ham shahar hayotidan holi, osuda, ekologik toza hududda hordiq chiqarish maqsadida qishloq xo'jaliklarida agroturistik maydonlarni zamon talablariga javob bera oladigan, turistlarni o'ziga jalg qila oladigan darajada tashkil qila olsak, davlatimiz iqtisodiyoti yanada gullab-yashnaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018- yil 2-apreldagi 03/1-220-son bilan tasdiqlangan "Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlardan namunali fermer xo'jaliklarini sayyohlarga xizmat ko'rsatishga moslashtirish, ularga sayyohlarni jalb qilish hamda ularning mamlakatimizda bo'lish muddatlarini uzytirish maqsadida agroturizm va qishloq xo'jaligi turizmini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi". www.lex.uz.
2. Mamajonov M. Tabiatdan foydalanishning geografik asoslari. A.: "hayotnashri" 2020.
3. Shomuratova N.T.O'zbekistonda ekologik turizm va uning tabiiy geografik jihatlari: Dis... geog. fan. nom. - Toshkent: 2012. - 225-bet.
4. Komilov N.Q. ,JumaxanovSh.Z., Mirzaaxmedov X.s., Toshpo'latov A.M. Sotsial va madaniy geografiya. T.: 2020.